

## INTERROGATIV STIMULLOVCHI REPLIKALARNING SEMANTIK TASNIFI

Gulhida Ikromova

FarDU katta o'qituvchisi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20287415>

**Annotatsiya:** Maqolada dialogik nutq tarkibidagi stimullovchi replikalarning lingvopragmatik xususiyatlari hamda interrogativ stimullovchi replikalarning semantik turlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda replikaning nutqiy aktlar nazariyasi bilan bog'liqligi yoritilib, uning kommunikativ va pragmatik vazifalari ochib beriladi. Shuningdek, interrogativ stimullovchi replikalarning polarlikni tekshiruvchi, reparativ, verifikativ, alternativ va ritorik savol shakllari badiiy dialoglar misolida tahlil qilinib, ularning muloqot izchilligi hamda kommunikativ ta'sirchanlikni ta'minlashdagi o'rni asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** replika, dialogik nutq, stimullovchi replika, interrogativ replika, nutqiy akt, kommunikativ vazifa, pragmatika, reparativ savol, verifikativ savol, ritorik savol.

Tilshunoslikda replikaning lingvistik tadqiqi masalasi tarixan nutqiy aktlar nazariyasi bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. J.Ostin tomonidan taklif qilingan nutqiy aktlar nazariyasida lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlar farqlangan bo'lib, replikaning ayni shu uch nutq aktining uyg'unlashuvini namoyon qiladigan hodisa ekanligi alohida ta'kidlangan. [1, 56] J.Searle esa Ostin g'oyalari davom ettirib, illokutsion aktlarning batafsil tasnifini yaratgan va ularni assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlarga ajratgan. [2, 77] Shu asosda har bir replika nafaqat semantik shakl, balki pragmatik maqsad bilan chambarchas bog'langan murakkab nutqiy birlik sifatida baholanadi, ya'ni u ma'lum bir ma'noni ifodalaydi, shu bilan birga, kommunikativ vazifani ham bajarib, tinglovchiga ta'sir o'tkazadi. Jahon tilshunosligida replikaning lisoniy tadqiqiga oid ilmiy izlanishlarda ushbu nutq birliklari quyidagi 2 turga ajratiladi: stimullovchi va reaktiv replika. Mazkur tasnif dialogik nutqning ichki tuzilishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. [3, 214] Dialogik nutqni o'rganish tarixida stimullovchi va reaktiv replikaning nazariy talqinlari dunyo tilshunosligining turli ilmiy maktablari va olimlari tomonidan izchil tarzda ishlab chiqilgan. Stimullovchi replikalar mazmun jihatdan turlicha bo'lib, ularning har biri suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish darajasi, undash kuchi va kommunikativ maqsadi bilan farqlanadi. Shu asosda ular semantik belgisiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: interrogativ, imperativ, deklarativ, ekspressiv replikalar.

Interrogativ stimullovchi replika – bu so'roq mazmunini ifodalab, suhbatdoshdan aniq axborot yoki ma'lum bir munosabatni darhol talab qiladigan replika. Masalan:

*Qo'chqor. Olti kishi? Safar ham bormidi?*

*Qumri. Ha, bor edi.*

*(Sharof Boshbekov. "Temir xotin")*

Qo'chqorning "Olti kishi? Safar ham bormidi?" replikasi so'roq ohangi hamda *-mi* so'roq yuklamasi bilan shakllangan savol mazmunini ifodalovchi interrogativ stimullovchi replika hisoblanadi. Ushbu replika mazmunan aniq ma'lumot olishga qaratilgan bo'lib, ular muloqotning navbatini suhbatdosh, ya'ni Qumri tomoniga yo'naltiradi va uni reaktiv pozitsiya egallashga majbur qiladi. Qumrining "Ha, bor edi" tarzida qisqa va lo'nda javobi suhbat tahlili nazariyasida kutilgan va kommunikativ jihatdan afzal javob sifatida baholanadi. Interrogativ stimullovchi replika semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi:

**1) polarlikni tekshiruvchi InterSR** – bu tasdiq yoki inkorni talab qiladigan, ya'ni ikki qutbli javobga ega bo'lgan interrogativ konstruksiya [4, 167] bo'lib, unda so'ralayotgan savolning asosiy maqsadi muayyan faktning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Mazkur savol turi suhbatdoshni *ha* yoki *yo'q* ko'rinishidagi qat'iy reaksiya bildirishga majbur qiladi va shu orqali dialogning semantik aniqligini ta'minlaydi.

*Olimjon (hayajon bilan). ...Manavini qo'ydingizmi? Sizdan so'rayapman, qo'ydingizmi, yo'qmi?!*

*Qo'chqor. "Yo'q! Qo'ymadim, shekilli".*

*(Sharof Boshbekov. "Temir xotin")*

Olimjon replikasidagi interrogativ stimullovchi replika *-mi* so'roq yuklamasi orqali shakllangan bo'lib, u suhbatdoshni tasdiq yoki inkor oralig'ida aniq tanlov qilishga majbur etadi va ayni shu talab reaktiv javob sifatida *"Qo'ymadim, shekilli"* mazmunidagi inkor-ikkilanish mazmunini yuzaga keltiradi. Demakki, polar savolning asosiy vazifasi faktning mavjud yoki mavjud emasligini tekshirishdan iborat bo'lib, u dialogning ichki ritmini oshirish orqali suhbatning izchil, tartibli hamda mantiqan asoslangan tarzda davom etishini ta'minlaydi.

**2) reparativ savol tarzidagi InterSR** – bu suhbat jarayonida aytilgan fikrni to'liq tushunmaslik, noto'g'ri anglash yoki ma'lumotning yetarli bo'lmasligi oqibatida yuzaga keladigan, tushuntirishni talab qiladigan interrogativ stimullovchi replika [5, 696-735] bo'lib, u suhbatdoshdan oldingi fikrning aniqlashtirilgan, qayta izohlab berilgan yoki takrorlangan variantini talab qiladi. Reparativ savol tarzidagi interrogativ stimullovchi replikaning asosiy maqsadi muloqotdagi semantik noaniqlikni bartaraf etish, suhbatning izchilligini ta'minlash hamda kommunikativ uzilishlarni mantiqan to'ldirishdan iborat bo'ladi.

Masalan:

*Olimjon. UES.*

*Qo'chqor. Nima-ES?*

*Olimjon. UES – Universal elektron sxema*

*(Sharof Boshbekov. "Temir xotin")*

Ushbu dialogda Qo'chqorning *"Nima-ES?"* tarzidagi replikasi reparativ savol ko'rinishidagi interrogativ stimullovchi nutqiy birlik sifatida namoyon bo'lib, u semantik anglash jarayonida yuzaga kelgan ma'no uzilishini bartaraf etishga qaratilgan kommunikativ niyatni ifodalaydi.

**3) verifikativ InterSR** – bu suhbat davomida aytilgan axborotning suhbatdosh tomonidan to'g'ri qabul qilinganini, tushunilganini yoki eshutilganini tekshirishga qaratilgan, shaklan so'roq gap ko'rinishida shakllangan, mazmunan esa muloqotning semantik izchilligini va kommunikativ uzviyligini ta'minlovchi stimullovchi nutqiy birlikdir. Bunday replika muloqot jarayonida **monitoring vazifasini** bajaradi, chunki u suhbatdoshning "anglash darajasi"ni tekshiradi, semantik noaniqlikni bartaraf etadi va dialogning keyingi bosqichini belgilab, reaktiv javobning yuzaga kelish zaruriyatini yaratadi.

*Olimjon. Sening isming – Alomat. Tushundingmi?*

*Alomat. Tushundim. Mening ismim – Alomat.*

*(Sharof Boshbekov. "Temir xotin")*

Mazkur dialogda Olimjon tomonidan aytilgan *"Tushundingmi?"* tarzidagi birlik verifikativ interrogativ stimullovchi replika sifatida namoyon bo'lib, u tinglovchining mazkur axborotni to'g'ri anglagan-anglamaganini monitoring qilishga qaratilgan kommunikativ mexanizmni ifodalaydi.

**4) alternativ InterSR** – bu ikki yoki undan ortiq variantni qarama-qarshi qo'ygan holda suhbatdoshga majburiy tanlov imkonini taklif etuvchi, shaklan so'roq gap ko'rinishida bo'lsa-da,

mazmunan suhbatning semantik yo'nalishini belgilovchi va reaktiv javobni aniq variantlardan birini tanlashga yo'naltiruvchi stimullovchi nutqiy birlikdir. [6, 883-885] Alternativ interrogativ stimullovchi replikaning modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

Masalan:

*Qo'chqor (o'ziga achchiqlanib). Bu uyda men kimman o'zi, a? ... Qo'chqormanmi yo Qo'chqormasmanmi?!*

*(Sharof Boshbekov. "Temir xotin")*

Ushbu dialogda Qo'chqorning "Qo'chqormanmi yo Qo'chqormasmanmi?!" shaklidagi nutqi alternativ savol ko'rinishidagi interrogativ stimullovchi replika sifatida namoyon bo'lib, u suhbat jarayonida yuzaga kelgan ichki ziddiyatni ikki qarama-qarshi variant orqali ifodalashga qaratilgan kommunikativ niyatni bildiradi. Mazkur savol shaklan ikki variant ("Qo'chqorman" yoki "Qo'chqormasman") dan birini tanlashni taklif etsa-da, mazmunan suhbatdoshdan ushbu variantlardan birini tasdiqlash yoki inkor etish orqali personajning o'z o'rnini qayta belgilab berishni talab qiladi.

**5) ritorik savol tarzidagi InterSR** – bu shaklan so'roq gap ko'rinishida ifodalangan bo'lsa-da, mazmunan suhbatdoshdan javob kutmaydigan, balki ma'lum bir g'oyani kuchaytirish, emotsional ta'sirni oshirish, baholash, tanbeh berish yoki norozilikni ifodalash kabi ma'no nozikliklarini ifodalovchi nutqiy birlikdir. [7, 91-103]

*Qo'chqor (masxaralab). Hmm, armiya ham bas kelolmadimi, degin?*

*(Sharof Boshbekov. "Temir xotin")*

Ushbu dialogda Qo'chqorning masxaralovchi ohangda aytilgan "Hmm, armiya ham bas kelolmadimi, degin?" shaklidagi nutqi ritorik savol ko'rinishidagi interrogativ stimullovchi replika sifatida namoyon bo'ladi. Chunki mazkur savol shaklan so'roq konstruksiyasi ko'rinishida ifodalangan bo'lsa-da, mazmunan suhbatdoshdan javob talab qilmay, tayyor hukm, baholovchi munosabat hamda masxara ohangiga singdirilgan tanqidni ifodalaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin J. L. How to Do Things with Words . – Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language . – Cambridge: CUP, 1969.
3. Pfister M. Das Drama: Theorie und Analyse . – München: Fink, 1977.
4. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962.
5. Sacks H., Schegloff E. A., Jefferson G. A simplest systematics for the organization of turn-taking for conversation // Language, 1974. – Vol. 50, № 4.
6. Huddleston R., Pullum G. K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge : Cambridge University Press, 2002.
7. Ilie C. What is a rhetorical question? // Journal of Pragmatics, 1994. – Vol. 22.